

13. Bahadirovna, S. D. (2022, February). Enrich educational content through multimedia resources using digital technologies. In Conference Zone (pp. 220-221).

14. Uroкова, S., & Tuhtashev, U. (2019). Trends of electronic education development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(12), 768-771.

15. Uroкова, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (89),34-37.

16. Bakiyeva, Z. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga animatsiya yaratish qadamlarini o'rgatish. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke , 1 (17), 226-227.

17. Bakiyeva, Z. (2022). Teaching the steps of creating animation to students in higher education institutions. Академические исследования в современной науке, 1(17), 226-227.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARGA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ramazonov Xusniddin Saidaxmadovich

Nizomiy nomidagi TDPU tayanch

doktoranti

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o'quvchi talabalarning kasbiy bilimlarini o'zlashtirish darajasi davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash bilan bog'liq. Ikkinchidan, o'quvchi talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini to'liq qamrab olishga erishish. Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji o'qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O'zbekiston-2030” stategeyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 sonli Farmoniga asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.


Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'z mutaxassislik fanini o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushunishlarida, innovatsion ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni har tomonlama chuqur o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Zamonaviy axborot jamiyatida multimediali ta'lim, ta'lim jarayonida multimedidan foydalanish, zamonaviy o'qituvchining ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllanishda, multimediali vositalar yordamida ta'lim mohiyatini, ochib berish, pedagogik salohiyatining oshishi va turli multimedia vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishiga, ta'lim jarayonida (rasm, video, audio, animatsiya, matn), pedagogik modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Shuning uchun bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining multimediali axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish orqali ularning multimedia texnologiyalariga oid bilimlarini rivojlantirish masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda, bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining multimedia borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali kasbiy bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarinig axborot texnologiyalari bilan ishlash multimediga oid bilimlarining rivojlantirishi natijasida ta'lim-tarbiya ishlarini yuqori saviyada tashkil qilishi uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- mashg'ulotlarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq holda tashkil qilish va olib borishi;

- darslarni zamonaviy pedagogik usullar va ko'rgazmali (multimediali ta'lim vositalari va multimedia texnologiyalari) asosida tashkil qilishi;

- ta'limni tarbiya bilan uzviy holda olib borish, o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy ongini shakllantirishda, amaliy (multimedia vositalari yordamida turli xil amaliy vazifalarni bajarishi), mediata'lim usullarida oqilona foydalanishi lozim.



Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining mediakompetentligini yanada rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanib, o'quv rejalariga multimedia tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va metodik qo'llanmalar yaratish hamda tinglovchilarga, o'quvchilarga yetkazish, multimedia vositalari, multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim sohalarini rivojlantirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'isida”gi PF-6079-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2.Babadjonov S.S., Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent: 2018.

3.Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. 160 b.

4.Muslimov N.A., Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan. dok...dis. Avtoreferat.T, 2007. - 47 b.

ZAMONAVIY DUNYO: TA'LIMDA IJTIMOIIY TARMOQLAR

N.H.Saidova

Nizomiy nomidagi TDPU ATT-102 guruh talabasi

Zamonaviy jamiyatda insonning axborot madaniyatining eng samarali shakllanishi ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Biz o'quvchilarning umumiy madaniyatini shakllantirishni o'rta kasb-hunar ta'limining ustuvor vazifalaridan biri deb bilamiz, chunki shaxsning talabalik yillarida shakllangan madaniyat darajasi uning kasbiy faoliyatidagi farovonligini belgilaydi.

“Ijtimoiy tarmoq” atamasini 1954-yilda sotsiolog Jeyms Barns muomalaga kiritgan bo'lib, o'sha paytlarda uning internetga aloqasi bo'lmagan va unga shunday ta'rif berilgan: “Ijtimoiy tarmoq - ijtimoiy obyektlar hisoblanadigan (odamlar va tashkilotlar) tugunlar guruhi va ular orasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar)dan tarkib topgan ijtimoiy tuzilmadir”. Oddiyroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq – ma'lumotlar, bir taraflama yoki ikki taraflama aloqalarga ega bo'lgan odamlar guruhidir. Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida yetakchi o'rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma'lum qilingan. Undan keyingi o'rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda.

Media kontent almashuviga mo'ljallangan ijtimoiy tarmoqlar (Media sharing networks) Ijtimoiy tarmoqning bu turi foydalanuvchilarga video va foto materiallarni o'zaro almashishga imkon beradi. Bularga Flickr, Instagram, YouTube, Vimeo, Vine, Snapchat. Muhokamalar va izohlarga mo'ljallangan ijtimoiy tarmoqlar (Online reviews) Yelp va Urbanspoon xorijiy tarmoqlari geolokatsiya va mahalliy biznes haqida sharh va tavsiyalar qoldirish qobiliyatiga asoslangan. Airbnb va Uber sayohatchilar turar joylari va shaxsiy tashuvchilar